

## Navoiy viloyat statistika boshqarmasi



### 2018 yil yanvar-iyul oylarida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

#### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **12507,3 mlrd. so'mni**, o'sish **1,4 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **-101,1 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **11,3 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **13,7%**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimiz korxonalaridan 12507,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,4 % ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 66,2 % tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 28,1 %, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,6 % tashkil etdi.

#### 2018 yil yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





### ***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3508,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 28,1 % ni tashkil etdi.

### ***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2018 yilning yanvar-iyul oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8284,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 66,2 % ni tashkil etdi.

### ***Yanvar-iyul oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
<b>Portlandsement, ming tonna</b>			
2134,2		2135,0	100,0
<b>Shifer, tonna</b>			
3349,20		15627,9	466,6
<b>Ammoniy nitrat, ming tonna</b>			
111,75		126,44	113,1

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
-------------------------------	---	-------------------------------	----------------------

### Temir beton, ming tonna

15,628



30,645

196,1

### Paxta tolasi, ming tonna

22,585



18,814

83,3



### *Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.*

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 667,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,3 % ni) tashkil etdi.

### *Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.*


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 47,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.




### ***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1412,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 101,1 %, jami sanoatdagi ulushi esa 11,3 % ni tashkil etdi.

### ***2018 yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari***




**Yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da**



**Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.**


Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Navoiy shahri (viloytda sanoat ishlab chiqarish hajmning 82,7 % ulushini), Karmana (8,4 %), Qiziltepa (2,9 %), Xatirchi (2,1 %), Navbahor (1,5 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2018 yilning yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlarda sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, %**




Shu bilan birga eng kam ulush Tomdi (0,1 %), Konimex (0,3 %), Uchquduq (0,4 %), Nurota (0,7 %) tumanlari va Zarafshon (0,9 %) shahriga to'g'ri keladi.

**2018 yilning yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi o'sish sur'atlari, %**



Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Qiziltepa tumani (2017 yilning yanvar-iyul oylariqa nisbatan 108,9 %), Karmana (106,6 %), Konimex (101,3 tumanlari va Zarafshon (105,7 %), Navoiy (100,8 %) shaharlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.


**2018 yil yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlari va o'sish sur'atlari**



### ***Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.***

2018 yil yanvar-iyul oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishi keskin faollashdi. Natijada ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 13,7 % tashkil ettdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi Navoiy shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 3,3 %), Karmana (44,6 %), Navbahor (73,6 %) ,Xatirchi (80,0 %),Qiziltepa (80,9 %), Nurota (98,5 %), Konimex (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Uchquduq (100,0 %), tumanlarida hamda Zarafshon shahrida (75,3%) kuzatildi





Bugungi kunda viloyatimizda 1665 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 533 tasi Navoiy shahrida, 297 tasi Karmana, 237 tasi Nurota, 184 tasi Qiziltepa, 116 tasi Xatirchi, 74 tasi Navbahor, 63 tasi Uchquduq, 40 tasi Tomdi, 32 tasi Konimex tumanlarida va 89 tasi Zarafshon shahrida joylashgan.

**2018 yil 1 avgust holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni**



Joriy yilning yanvar-iyul oylari davomida viloyatimizda 231 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 23,4 % Navoiy shahriga to'g'ri keladi.